



“TO‘QIMACHILIK SANOATI: O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING YANGI LOKOMOTIVI”

Otaxanova Umida Olim qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi
Alfraganus universiteti nodavlat oliy ta’lim tashkiloti,
“Moliya” kafedrası o’qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14498450>

Annotatsiya: tadqiqotimiz jarayonida to’qimachilik sanoatini rivojlantirishdagi muammolar o’rganildi, to’qimachilik sanoatidagi modernizatsiyalangan texnologiyalar, ekalogik muammolar, logistika, xalqaro standartlar, xomashyoni qayta ishlash kabi jihatlari o’rganildi.

Kalit so’zlar: to’qimachilik, eksport, ISO, GOTS, logistika, paxta, tola, texnologik modernizatsiya, xalqaro savdo.

Bugungi kunda dunyo bozorlarida ekologik toza va sifatli mahsulotlarga talab ortib borayotganligi sababli O’zbekiston “yashil iqtisodiyot” va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali o’z pozitsiyasini kuchaytirishga harakat qilayotganligi, mahalliy korxonalar Janubiy Koreya, Xitoy, Turkiya va Yevropa bozorlariga kirib, sifatni xalqaro standartlarga moslashtirish ustida ishlayotganligi hamda paxta yetishtirish va qayta ishlashning yangi klaster modeli joriy etish, bu boradagi xorijiy investorlarni jalb etilayotganligi ishimizning dolzarbligidan dalolat bermoqda.

To’qimachilik sanoati mamlakatning barcha hududlarida keng tarqalgan va eng ko’p ish o’rinlariga ega bo’lgan sohalardan biridir. Bugungi kunda 6 mingdan ortiq korxona 570 ming kishini ish bilan ta’minlamoqda. So’nggi yillarda investitsiyalar va yangi texnologiyalarni faol jalb qilish orqali sanoat samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Masalan, o’tgan yili 8 milliard 200 million dollarlik to’qimachilik va tikuvchilik-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilgan, bu yetti yil avvalgidan 4,2 baravar ko’pligini inobatga olsak sezilarli ravishda rivojlanish bo’lmoqda.

Shuningdek, 2023 yilda sanoatning eksport hajmi 3,1 milliard dollarni tashkil etdi. Bu yil sanoat uchta yangi bozorga chiqdi, eksport geografiyasi 83 mamlakatni tashkil etadi.

Biroq, eksport tarkibini tahlil qilish ma’lum kamchiliklarni ko’rsatadi. Masalan, tayyor tovarlarni eksport qilishda yuqori qo’shimcha qiymatga ega mahsulotlarning ulushi past. Eksportning qariyb 80 foizi hali ham an’anaviy sheriklar bozorlariga to’g’ri keladi. Rivojlangan mamlakatlar bozorlariga yoki brendlarga eksport hajmini oshirish uchun xalqaro standartlar va sertifikatlar






talab qilinadi. Biroq, faqat 175 ta korxona ushbu talablarga javob beradi. 18 ta tumanda to'qimachilik mahsulotlarining yillik ishlab chiqarish hajmi million dollarga ham yetmaydi.

Ishlab chiqarishni ko'paytirishning eng yaxshi usullaridan biri bu mahallalarda yirik korxonalar filiallarini ochishdir. Masalan, Samarqand shahridagi Zarafshon to'qimachilik fabrikasi 11 ta mintaqaviy filial ochdi. Buning afzalligi shundaki, standartlarni amalga oshirish yoki sertifikatlar olish uchun qo'shimcha vaqt va pul sarflashning hojati yo'q. To'qimachilik korxonalari uchun eng dolzarb muammolardan biri xom ashyodan foydalanishdir. Mamlakatimizda 1 million 300 ming tonna paxta tolasini qayta ishlash quvvati mavjud, ammo hozirgi vaqtda 1 million tonnaga yaqin tola ishlab chiqarilmoqda.

1-jadval

O'zbekiston to'qimachilik sanoatidagi muammolari

No	Muammo turi	Tavsifi	Ehtimoliy yechimlar
1	Texnologik modernizatsiya	Eski uskunalar va raqamli texnologiyalar yetishmasligi.	Zamonaviy uskunalar xarid qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, davlat dasturlarini kengaytirish.
2	Suv va tabiiy resurslardan foydalanish	Paxta yetishtirishda suv isrofi va samarali sug'orish tizimlarining yetarli emasligi.	Tomchilatib sug'orish texnologiyalarini kengaytirish, ekologik amaliyotlarni rivojlantirish.
3	Ekologik muammolar	Kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar tuproq va suv sifatiga zarar yetkazmoqda.	Ekologik toza qishloq xo'jaligi usullarini joriy etish, ekologik nazoratni kuchaytirish.
4	Malakali kadrlar yetishmovchiligi	Soha uchun zarur bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar soni kam.	Kasbiy ta'lim dasturlarini modernizatsiya qilish, amaliyotga yo'naltirilgan kadrlar tayyorlash.
5	Mahsulot raqobatbardoshligi	O'zbek mahsulotlari xalqaro bozorda kuchli brend sifatida tan	Xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, marketing va





		olinmagan.	brendlashga e'tibor qaratish.
6	Xomashyoni qayta ishlash darajasi	Paxta xomashyosining katta qismi hali ham tayyor mahsulot shaklida emas.	Chuqur qayta ishlash quvvatlarini oshirish, tayyor mahsulot eksportiga e'tibor qaratish.
7	Logistika va infratuzilma	Transport va logistika xarajatlarining yuqoriligi eksportga to'sqinlik qilmoqda.	Transport infratuzilmasini yaxshilash, eksport jarayonlarini soddalashtirish.
8	Global standartlarga moslashish	Mahsulot sifatini xalqaro talablar darajasida kafolatlashda qiyinchiliklar mavjud.	Sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish, korxonalarni sifat standartlariga moslashtirish.

Jadvalda keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etishda quyidagi quyidagi yechimlarni shaklantirdik:

Texnologik rivojlantirish: zamonaviy uskunalarni xarid qilish uchun davlat tomonidan subsidiyalar ajratish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va soliq imtiyozlari berish orqali ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnologik parklar va innovatsion klasterlarni tashkil etish, kichik va o'rta korxonalarga arzon kredit liniyalarini taqdim etish.

Mahsulotlarning raqobatbardoshligi: mahalliy brendlarni rivojlantirish uchun davlat miqyosida marketing va reklama dasturlarini amalga oshirish, eksport mahsulotlarini xalqaro ko'rgazmalar va savdo yarmarkalarida faol targ'ib qilish, xalqaro sifat sertifikatlarini olishni qo'llab-quvvatlash va sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish, mahsulotlarni xalqaro bozorda sotish uchun kuchli brend yaratish.

Logistika hamda infratuzilma: eksport logistikasini soddalashtirish uchun bojxona tizimini takomillashtirish, ichki va tashqi transport infratuzilmasini rivojlantirish, temir yo'l va avtomobil yo'llarini kengaytirish, xalqaro savdo yo'laklaridan (masalan, Xitoy-Yevropa yo'nalishi) faol foydalanish.





Global standartlarga moslashish: korxonalarni xalqaro sifat va ekologik standartlarga (ISO, GOTS kabi) moslashtirish uchun maxsus davlat dasturlarini tashkil etish, sertifikatlashtirish xizmatlarini arzonlashtirish va bu jarayonni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, mahsulotlarning xalqaro bozorda tan olinishi uchun "Made in Uzbekistan" brendi ostida sifat kafolatlarini joriy etish.

Xulosa qiladigan bo'lsak sohada mavjud bo'lgan bir qator muammolar uning samarali ishlashiga to'siq bo'lib turibdi. Bu muammolar orasida texnologik modernizatsiyaning yetishmasligi, ekologik salbiy ta'sirlar, malakali kadrlar yetishmovchiligi, xomashyo qayta ishlash darajasining pastligi va logistika muammolari eng muhimlaridan sanaladi.

To'qimachilik sanoatini rivojlantirish uchun bir qator tizimli choralar ko'rish zarur. Birinchidan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish orqali sanoatning samaradorligini oshirish mumkin. Texnologik modernizatsiya nafaqat mahsulot sifatini yaxshilaydi, balki energiya sarfini kamaytiradi va chiqindilarni minimallashtiradi. Bunda, davlat tomonidan innovatsion texnologiyalarni joriy etishni qo'llab-quvvatlovchi subsidiyalar va investitsiyalarni jalb qilish muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchidan, ekologik muammolarni hal etish maqsadida, to'qimachilik sanoatida ekologik toza texnologiyalarni keng qo'llash va kimyoviy o'g'itlar va pestitsidlar o'rniga ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish lozim. Shu bilan birga, soha uchun xalqaro ekologik sertifikatlarini olishni qo'llab-quvvatlash va ekologik standartlarga moslashish zarur.

Uchinchidan, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish juda muhim. To'qimachilik sanoati uchun zamonaviy ta'lim va malaka oshirish tizimini yaratish, sohaning rivojlanishiga xizmat qiladigan kadrlar tayyorlashga imkon yaratadi. Kasb-hunar maktablari, texnikumlar va oliy ta'lim muassasalarida to'qimachilik sohasiga oid mutaxassisliklar va amaliyot dasturlarini joriy etish talab qilinadi.

Umuman olganda, O'zbekistonning to'qimachilik sanoatini barqaror va raqobatbardosh rivojlantirish uchun kompleks yondashuv va tizimli chora-tadbirlar zarur. Texnologik, ekologik, kadrlar va logistika sohalaridagi muammolarni hal etish va eksportni rivojlantirish orqali, mamlakatning to'qimachilik sanoati nafaqat ichki bozorni ta'minlaydi, balki global bozorda o'z o'rnini mustahkamlaydi. Ushbu yo'nalishlarda amalga oshirilgan sa'y-harakatlar O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shadi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishga olib keladi.





Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni.
2. Sh. Isohov "To'qimachilik kimyosi" darslik
3. dev-portal.miit.uz- Invest O'zbekiston rasmiy sayti ma'lumotlari.

